

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “ONA TILI” FANINI O‘QITISHNING SAMARALI
USULLARI**

Nizomova Sanobar Nozim qizi

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

17-son mактабнинг бoshlang‘ich fani o‘qituvchisi

Ne’matova Gulhayo Sayfiddin qizi

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

17-son mактабнинг бoshlang‘ich fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Boshlang‘ich sinflarda “Ona tili” fanini o‘qitishning samarali usullari va ulardan foydalanish ko‘rsatib berilgan.*

Boshlang‘ich sinflarda “Ona tili” fanini o‘qitishning samaradorligi juda ko‘p omillar bilan chambarchas bog‘langan. Shubhasiz, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari va o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish, ona tili ta‘limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to‘g‘ri belgilash, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida pedagogik hamkorlikning o‘rnatalishi, darsda ishga solinadigan vositalarning maqsadga muvofiq tanlanishi singarilarning barchasi samaradorlikni ta‘minlash bilan aloqadordir.

Ana shu omillar ichida ona tili ta‘limning mazmuni muhim va yetakchi omil sanaladi. Chunki samaradorlik avvalo o‘quvchilarga “**Nimani o‘qitish?**” masalasi bilan chambarchas bog‘liq. Ona tili ta‘limidan o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko‘nikmalar tizimi to‘g‘ri belgilansagina “**Qanday o‘qitishi kerak?**” degan savolga javob topish mumkin. Demak, samaradorlik avvalo ana shu ikki omil bilan bevosita aloqadordir.

“**Nimani o‘qitish?**” va “**Qanday o‘qitish kerak?**” bir jarayonning ikki qirrasidir. Bular shu darajada bir-biri bilan bog‘langanki, biri ikkinchisiz hech qanday samara ko‘rsatmaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining real o‘quv imkoniyatini aniqlash, bolalarning o‘zlashtirish darajasiga qarab topshiriqlarni tabaqalashtirishga shart-sharoit yaratadi. Topshiriqlar o‘quvchilarning bilim saviyasiga mos bo‘lsagina u samarali bo‘ladi.

Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar - Ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiq yoki inkortushunchasi fe’ldagi bo‘lishli va bo‘lishsizlik ma’nosini anglatadi.

Ish-harakatning bajarilishi haqidagi tasdiqni anglatuvchi fe’llar bo‘lishli fe’l deyiladi. Fe’ldagi bo‘lishlilik ma’nosini ifodalovchi maxsus grammatik ko‘rsatkich yo‘q: *o‘qi, eslat, qolgan, borsa, aytib bergan, o‘qib chiqdi, hurmat qil kabi*. Masalan: *Ona so‘zinинг о‘зи har yurakka jarangli sado beradi (Hikmatlar guldstasi). O‘z burchini bajarishdan mammun odamligini erkin yashaydi (Tafakkur gulshani)*.

Dars mavzusi: Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar.

Darsning texnologik xaritasi

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

O‘qituvchi sinfga kiradi. O‘quvchilar bilan salomlashadi.

O‘qituvchi: Ona tili darsining shiorini aytamiz.

O‘quvchilar: Ona tili darsimiz,

Onam tili darsimiz.

O‘zbek tilini chuqurroq

O‘rganishdir burchimiz.

II. O‘tilgan mavzuni so‘rash va mustahkamlash.

-Daftarlarimizga sanani yozib olamiz. Husnixat malakalariga amal qilib videolug‘at diktant yozamiz.

Chiroyli yoz, yozsang xat,

Chunki bu ham zo‘r san’at.

LUG‘AT DIKTANT

Binafsha	Atirgul
Lola	Chinnigul
Lolaqizg‘aldoq	
nargis	
Chuchmoma	

O‘qituvchi: Balli, dono o‘quvchilarim. Hozir biz siz bilan. Tezkor savol- javob” so‘rov metodi asosida o‘tilgan mavzuni mustahkamlaymiz.

Donolar	Zukkolar	Ziyaraklar
1) So‘z nima? 2) So‘zlarda qanday qismlar bo‘ladi?	1) Siz qaysi so‘z turkumlarini bilasiz? 2) Gap nima? Gap nimalardan tuziladi	1) Gapda qanday bo‘laklar bor? 2) Bosh bo‘laklarda qaysi bo‘laklar kiradi?

III Yangi mavzuning bayoni:

Fe‘l mavzusini qanchalik o‘rganganligingizni yana bir bor tekshiramiz. Diktafon orqali she‘r o‘qib beriladi. O‘quvchilarga tinglab fe‘llarni yozish topshiriladi.

Fellarni tekshiramiz.

oqadi	oqmaydi
boqadi	boqmaydi

yoqadi

yoqmaydi

Shu topshiriq orqali o‘quvchilar bilimi tekshiriladi va yangi mavzuga bog‘lanadi.

O‘quvchilar fikri tinglab to‘ldiradilar va dars mavzusi tanishtiriladi. **Qoida! Keldi, bordi, aytdi** kabi fe’llar harakatning bajarilganligini bildiradi. Bunday fe’llar **bo‘lishli fe’llar** deyiladi.

Kelmadi, bormadi, aytmadi kabi fe’llar esa harakatning bajarilmaganligini bildiradi. Bunday fe’llar **bo‘lishsiz fe’llar** deyiladi.

Bo‘lishli fe’lda **–ma** qo‘shinchasini qo‘shish bilan b’lishsiz fe’l hosil bo‘ladi.

312- mashq. O‘qing. Fe’llarni aniqlang.

Bugun hamma mактабга keldi. Biroq Anvar kelmadi. Anvarning sinfdoshlari darsdan keyin uning uyiga borishdi. Onasi Anvarning kasalligini aytdi. O‘rtoqlari Anvarni kirib ko‘rishdi. Darsda o‘tilgan mavzular to‘g‘risida suhbatlashdilar. Keldi-kelmadi, bordi-bormadi, aytdi-aytmadi, ko‘rishdi-ko‘rishmadi, suhbatlashdi-suhbatlashmadi, gapirdi-gapirmadi fe’llarni o‘qing, ular bir-biridan nimasi bilan farq qilayotganini ayting.

Harakatning bajarilishidagi farqni hisobga olgan holda ularni ikki ustunga namunadagidek alohida-alohida yozing.

Namuna: Harakat bajarildi: Harakat bajarilmadi

keldi kelmadi

O‘quvchilar ishi tekshirilib rag‘bat beriladi.

Ko‘rgazma asosida suhbat.

Dam olish daqiqasi.

O‘quvchilar sh’er aytib, harakat qiladilar.

Ahil asalarilar

Azonlab tushar ishga.

Atrof,dala,bog‘lardan,

Asal yig‘ishar qishga .

313- mashq. O‘qing. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llarni aniqlang.

Ozoda uchinchi sinfda o‘qiydi. U darsdan sira kech qolmaydi. Ozoda o‘quv qurollarini yaxshi saqlaydi. U topshirilgan vazifalarni mustaqil bajaradi. Ozoda o‘rtoqlardan yordamini ayamaydi.

Ko‘chiring. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llarning tagiga ikki chiziq chizing. Ularning farqini ayting. Bo‘lishsiz fe’llar ustida “b-siz” (bo‘lishsiz) deb yozing.

Dam olish daqiqasi

Husnixat derlar meni,

Kimki chiroyli yozsa,

Biling shuni do‘stlarim,

Maqtayman uni rosa.

Maqollar bahsi

Ilmsiz - bir yashar, Ilmli - ming yashar.

Ona yurting - oltin beshiging.

Izzat tilasang, ko‘p dema, . Sihat tilasang, ko‘p yema.

Do‘sit bo‘lsang, do‘sitingning aybini tuzat.

Duo bilan el ko‘karar, Yomg‘ir bilan yer ko‘karar.

El qo‘risang, o‘zarsan, Qo‘rimasang, to‘zarsan.

Vaqting ketdi - naqding ketdi.

IV Yangi mavzuni mustahkamlash:

“Charxpalak” metodi asosida

I-guruh

N	Bo‘lishli fe’llar	Bo‘lishsiz fe’llar
1	yozdi	?
2	aytdi	?
3	chiqyapti	?
4	saqlaydi	?

II-guruh

N	Bo‘lishli fe’llar	Bo‘lishsiz fe’llar
1	?	O‘qimadi
2	?	uxlamayapti
3	?	arralamadi
4	?	ishlamadi

III-guruh

N	Bo‘lishli fe’llar	Bo‘lishsiz fe’llar
1	ichadi	?
2	chiqди	?
3	ko‘rdi	?
4	tayyorladi	

V Baholash.

Rag‘bat kartochkalari orqali o‘quvchilar bilimlarini baholash. Baholash marosimida har bir o‘quvchining bahosini izohlab berish. Baholash vaqtida o‘quvchilarni shaxsiy munosabatlarini emas, balki bilimlarini, sa‘y-harakatlarini hisobga olish.

VI Uyga vazifa. 333-mashq. Berilgan qoidani yodda tuting!

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017., 13-fevral. 6 (766)-son, 70 modda.-B. 25-150.

2. Ona tili va o‘qish savodxonligi 1 Metodik qo‘llanma: o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma I I. A. Azimova [va boshqa.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.

3. Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [